



## INNOVATIVE METHODS FOR IMPROVING MUSIC LITERACY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

*Munira J. Yusupova*

*Student*

*Termez State University*

*Termez, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Music, choral singing, music literacy, listening to music, terms, traditions, tempo intervals, alteration, dynamic symbols, language of music expression, simple music forms and genres, major and minor.

**Received:** 14.06.22

**Accepted:** 16.06.22

**Published:** 18.06.22

**Abstract:** This article discusses innovative methods for improving music literacy in primary school students. The school plays an important role in imparting comprehensive knowledge to the younger generation, educating them to become the best people of our country. Young people are exposed to innovative methods and ways to promote them in today's sand.

---

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MUSIQA SAVODXONLIKNI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION METODLAR

*Munira J. Yusupova*

*Talaba*

*Termiz davlat universiteti*

*Termiz, O'zbekiston*

---

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Musiqa, xor bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash, atamalar, an'analar, sur'at (temp)lar intervallar, alteratsiya, dinamik belgilar, musiqaning ifoda tili, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major hamda minor.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqa savodxonlikni takomillashtirishda innovatsion metodlari haqida so'z yuritilgan. Yosh avlodga har tomonlama puxta bilim berish, ularni vatanimizning yetuk kishilari etib tarbiyalashda maktab muhim rol o'ynaydi. Yosh avlodlarga innovatsion metodlar va uni bugungi kunda targ'ib qilish yo'llari ochib berilgan.

**ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ МУЗЫКАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ  
УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ***Мунира Дж. Юсупова**Студент**Термезский государственный университет**Термез, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** Музыка, хоровое пение, музыкальная грамотность, слушание музыки, термины, традиции, темповые интервалы, альтерация, динамические символы, язык музыкального выражения, простые музыкальные формы и жанры, мажор и минор

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются инновационные методы повышения музыкальной грамотности учащихся начальных классов. Школа играет важную роль в передаче всесторонних знаний подрастающему поколению, воспитании их, чтобы они стали лучшими людьми нашей страны. Молодые люди знакомятся с инновационными методами и способами их продвижения в современных песках.

**KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida “...kelajagimiz poydevori bilim dargohida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishga bog‘liq” deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, maktab jamoasi o‘quvchiga bilim berish, uni shaxs sifatida kamol topib voyaga etishga katta xizmat qilishi bilan birga ularni musiqa va musiqa san’ati olamiga olib kiradi, go‘zallikka bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantiradi.

Yosh avlodni jismoniy va ma’naviy kamolotini ta’minlash kelajakni o‘ylovchi har bir jamiyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Respublikamiz istiqlolining dastlabki kunlaridan boshlab ushbu muammoga juda katta e’tibor berilishi ham fikrimizga dalil bo‘la oladi. I.A. Karimov “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tashabbus guruhi bilan uchrashuvda bu masalaning benihoya dolzarbligini ta’kidlab, “Biz farzandlarimizni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligiga erishishdek oliy maqsadlar sari etaklashimiz kerak”, — degan.

Musiqa darsliklari boshqa darsliklar kabi Istiqlool sharofati bilan chop etilib, Mustaqillik ne’matiga aylandi. Maktab o‘quvchilari uchun har bir darslik va o‘quv adabiyotlari o‘z o‘rnida aziz, chunki ular bolalar tafakkurini o‘stiradi, istiqbol sari yetaklaydi. Musiqa darslarining ham mazmun mohiyati ana shunday. Musiqa insonni g‘aroyib kuy va ohanglar dunyosiga boshlaydi, his-tuyg‘ularni noziklashtiradi, didini charxlaydi, go‘zallikni sevishga o‘rgatadi.

Darhaqiqat, bugungi kunda ongi va salohiyati rivojlanib kelayotgan yosh nihollarimizga buning yaqqol tasvirini ko‘rishimiz mumkin. Musiqa kishi ruhining axloqiy tomoniga ma’lum darajada ta’sir etar ekan, u yoshlarning tarbiyasiga o‘z ijobiy ta’sirini o‘tkazadi. Musiqasiz hayot yo‘qligi va musiqada hayot mujassamligi barjamizga ayol. Shaxsi va dini, irqidan qat’iy nazar har bir inson musiqa tinglashni

yoqtiradi desak xato qilmagan bo‘lamiz. Shu sababli ham rivojlanib kelayotgan yosh avlodlarimizga musiqaning mazmun mohiyatini tubdan o‘rgatish va mustahkamlash uchun bugungi kunda musiqa san’atiga katta e’tibor berilmoqda. Shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirish insonning ham jismonan, ham aqlan ma’naviy tomondan kamolga yetish jarayonidir.

Umumta’lim maktablarida musiqa o‘qitishning asosiy maqsadi — o‘quvchilarga musiqa san’atini go‘zallik qonunlari asosida o‘rgatish malakasini singdirish va ularga musiqa madaniyatini tarkib toptirishdir.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish, unga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurligi qayta-qayta ta’kidlanadi. Chunki mamlakatimiz tez sur’atlar bilan taraqqiy etib, jahon hamjamiyatida iqtisodiy-siyosiy mavqeyi kundan-kun ortib bormoqda. Ta’lim-tarbiya sohasini texnologiyalashtirish jarayoni ham bu sohada samarali natijalarni bermoqda. Bugungi kunda ta’lim sohasiga pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar kirib kelishi darslarni zamonaviy ruhda, ya’ni yangi usul va yangi texnikalar orqali tashkil qilishga sabab bo‘ldi. “Musika madaniyati” fani dasturida, o‘quvchiga musiqa ta’limi berish bilan bir qatorda uning ijodkorlik qobiliyatini o‘stirish, vokal-xor malakalarini rivojlantirish, musiqani idrok etish, musiqiy savodxonligi, ritmik jo‘r bo‘lish kabi mahoratlarini oshirish alohida uqtirilgan.

### ASOSIY QISM

Ma’lumki, boshlang‘ich sinflarda musiqa ta’limining poydevori quriladi. Unda musiqaga oid barcha bilimlar (xor bo‘lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqaga xos harakatlar bajarish, bolalar cholg‘u asboblarida ritmik jo‘r bo‘lish) beriladi. Musika savodi mustaqil dars faoliyati sifatida amal qilinmay, balki boshqa faoliyatlar jarayonida musiqa asarlarini badiiy o‘rganish va ijro etish usullarini savodxonlik asosida bajarish uchun qo‘llaniladi. Bir so‘z bilan aytganda, musiqiy savodxonlik darsning ta’limiy vazifasini bajaradi.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda chet tillarini o‘rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratib berildi. O‘zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov aytganlaridek “Hozirgi paytda xorijiy tillarni o‘rgatish va o‘rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o‘ziga munosib o‘rin egallash intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o‘z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo‘qdir”. Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini o‘rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qarori chet tillarini o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘quvchi – yoshlarning musiqiy qiziqishlari, asosan, zamonaviy, ommaviy (estrada) musiqa janrlari doirasida namoyon bo‘lib, ushbu yangi yo‘nalish hamda uning talqinidagi asarlarga nisbatan moyillik va qiziqishlari shakllanmoqda. Biroq, o‘quvchilarning xalq musiqasidagi o‘ziga xos milliy

ma'naviy va tarbiyaviy xususiyatlarini anglab etishi qiyin kechmoqda. Shu boisdan, ma'naviyat va milliy madaniyatni rivojlantirish davlat miqyosidagi muhim ijtimoiy masala sifatida e'tirof etilayotgan bugungi kunda, ayniqsa, xalq cholg'u musiqasini tinglash, qo'shiqlar kuylash va musiqa savodxonligini shakllantirishga e'tiborni kuchaytirish zarur. Mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish, o'quvchilarning o'quv materialini idrok qilishi hamda musiqa vositasida, tarbiyalash borasida, musiqa o'qitish metodlari, dars tarkibi, musiqiy faoliyatlarni amalga oshirish yuzasidan o'quvchilarning imkoniyatlari, sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy ishlarni tashkil qilish va boshqa ilmiy-nazariy jihatlar yuzasidan ayrim ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan va bugungi kunda ham olib borilmoqda.

Musiqa, musiqa ta'limi jarayonida o'quvchilarni musiqiy-estetik tarbiyalash jamiyatimizda muhim tarbiya vositalaridan biri hisoblanadi. IX – X asrlarda yashagan buyuk faylasuf olim, o'rta asr Sharq musiqa nazariyasining asoschilaridan bir Abu Nasr Muhammad al-Farobiy (873-950) o'zining "Musiqa haqida kitob" (kitob ul-musiqa al-Kabir) asarini yozib tugatar ekan, musiqaning ta'siriga quyidagicha ta'rif beradi: "Yo, alhazar, ey musiqa olami! Yaxshiyamki sen borsan. Agar sen bo'lmaganingda insonning ahvoli ne kechar edi". Darhaqiqat, kuylar borki, uni tinglaganda, har bir kishini beixtiyor mungli, mayin hislar qamrab oladi. Ayrim kuy, navolar esa tantanavorligi, ulug'vorligi bilan kishiga o'zini rom qiladi, boshqasi esa albidashod xurramlik tuyg'usini jo'sh urdiradi.

Mustaqillik sharoitida xalq musiqa madaniyati, jamiyatimizning ma'naviy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yurtboshimiz aytganlaridek "Har bir o'zbekning xonadonida biron-bir cholg'u asbobining doimo osig'liq turishi ham xalqimizning musiqa san'atiga cheksiz hurmati va ixlosidan darak beradi. Aytish mumkinki, "Musiqa" odamlarimizning yurak tuyg'ulari, ruhiy kechinmalari bilan chambarchas payvand bo'lib, hayotimizning ajralmas, uzviy bir qismiga aylanib ketgan". Darhaqiqat, butun dunyoga o'zining buyuk qadriyatlari bilan ma'lum va mashhur o'zbek xalqining boy madaniy merosi bo'lgan xalq cholg'u musiqasini o'rganish orqali o'quvchi yoshlar tarbiyasiga estetik tizimidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1-prezidenti I.A. Karimovning "...buyuk ma'naviyatimizni tiklash yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini mustahkamlash va zamon talablari bilan uyg'unlashtirish" haqidagi fikrlari musiqa ta'limida ham katta ahamiyat kasb etadi. Milliy musiqamiz amaliyotida yangi yo'nalishlar paydo bo'lishi, ifodaviy shakl, ijro uslublari va cholg'u sozlarining o'zgarishi orqali xalq musiqasida o'ziga xos ijtimoiy xususiyatlar va talablar namoyon bo'lmoqda.

Ayniqsa, xalq musiqasining – badiiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali o'quvchi yoshlarda xalqimizning boy milliy an'alariga, madaniyati va ma'naviyati durdonalariga qiziqish hamda hurmat-ehtiromini tarbiyalash, pirovard natijada, xalq musiqasi amaliyotida vorislik an'alarini rivojlantirish mumkin. Umumiy musiqa ta'limi jarayonida musiqiy estetik tarbiyani

takomillashtirish o'quvchilar tinglaydigan asarlar mazmuni va ushbu musiqaga nisbatan munosabatiga bog'liq. Shunday bo'lsa-da, yuqoridagi holatlar asosida o'quvchilarning xalq musiqasiga nisbatan qiziqishlarini yetarli darajada shakllantirish jarayoniga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Turli ta'lim bosqichlarida turli darslarni o'qitish jarayonida, har xil vositalar orqali o'quvchilarni estetik tarbiyalash masalalariga qaratilgan ilmiy-uslubiy ishlar mavjud. Ammo, boshlang'ich sinflar musiqa darslari jarayonida o'quvchilarning savodxonligini shakllantirish notalar vositasida oddiy qo'shiqlarni kuylay olish masalasida nisbatan adabiyotlar oz. Musiqa savodi bilan tanishtirish asosiy ta'lim mezonini bo'lib, o'quvchilarni ijro etilayotgan asarning yaratilish tarixi, muallifi, asarning shakli, mantiqiy mazmuni, undagi obrazlar uyg'unligi, asarni tuyg'u obrazli idrok qilish, unga munosabat bildirish, og'zaki yoki yozma tavsiflash kabi asarning mazmunini anglash, estetik ta'sirini his etishga qaratilgan harakatlar kamdan-kam o'qituvchilarning ish faoliyatida kuzatilmoqda. Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda musiqa ta'limining poydevori quriladi. Unda musiqaga oid barcha bilimlar (xor bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqaga xos harakatlar bajarish, bolalar o'yinchoq cholg'u asboblari ritmik jo'r bo'lish) beriladi. Musiqa savodi mustaqil dars faoliyati sifatida amal qilinmay, balki boshqa faoliyatlar jarayonida musiqa asarlarini badiiy o'rganish va ijro etish usullarini savodxonlik asosida bajarish uchun qo'llaniladi. Bir so'z bilan aytganda, musiqiy savodxonlik darsning ta'limiy vazifasini bajaradi. Jumladan, o'quvchilarning musiqiy savodxonligi, ritmik jo'rnavozlik hamda ijodkorlik sohalarda zamon talabidan kelib chiqib anchagina ishlarni bajarish zaruriyati sezilmoqda. Shularni inobatga olib bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini "Boshlang'ich sinflar musiqa madaniyati darslarida musiqiy savodxonlikni shakllantirish" deb tanladik. Boshlang'ich sinf musiqa savodxonligida musiqiy tovushlardan tortib, atamalar, an'analar, sur'at (temp)lar intervallar, alteratsiya, dinamik belgilar, musiqaning ifoda tili, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major hamda minor ladiga oid bo'lgan nazariy bilimlar haqida 1.2.3 va 4 sinf o'quvchilariga tushunchalar beriladi. Maktab musiqa madaniyati darsliklaridagi musiqa savodxonligi faoliyatiga nisbatan turli qarashlar mavjud. Metodist nazariyotchi va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan maktabda "Musiqa savodxonligi" atamasining mohiyati turlicha talqin etilishini alohida qayd etib o'tish joiz. Uzoq yillar musiqa savodxonligi, uning elementar nazariyasini o'quvchi yoshlar ongiga singdirish borasida turli metod, usullardan foydalanish borasida ham har xil yondashuvlar bo'ldi. Achinarlisi shundaki, musiqa savodi o'quvchilarga tushuntirilmasdan quruq qoida sifatida yodlatish hollari ro'y berilgan. Natijada, musiqa savodxonligini tarkib toptirish masalalariga munosabat turlicha bo'ldi. Sohaning ayrim mutaxassislari musiqa savodi – bu musiqaning elementar nazariyasi bo'lib, musiqiy nutq haqida ma'lumot berishi ya'ni uning asosida nota savodining tasavvur etishini bildiradi deb hisoblashsa, bu nuqtai – nazarga qarshi mutaxassislar esa musiqa savodini musiqiy ta'limning shunday qismidirki, unda musiqa haqida barcha ma'lumotlarni (uning uslubi, shakllari, ifodalilik elementlari, yozuv uslublari, musiqa mualliflari va ishtirokchilari ham boshqalar) beradi, deb ta'riflaydi. Musiqa

savodxonligi mazmuni turlicha tushunilishi, uni amaliyotda o‘qitish yo‘llari turli mazmunga amalga oshiriladi. Ayrim hollarda musiqa savodxonligi elementlari ilk darslardan oq kiritiladi (masalan, musiqa tovushlari, o‘zining balandligi va cho‘zimi, bir-biridan farq qilish va hokazo). Boshqa nuqtai nazarga ko‘ra barcha nazariy tushunchalar, ma‘lumotlar bolalarga musiqaga ancha yaqin bo‘ladigan ya‘ni u bilan yaqindan oshno bo‘lgandan keyin berilishi maqsadga muvofiq degan g‘oya ilgari suriladi. Musiqa madaniyati o‘quv predmeti o‘quvchilarning ma‘naviy, badiiy va axloqiy madaniyatni shakllantirishga, milliy g‘urur hamda vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat, badiiy didni o‘stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik, tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladigan bo‘ldi. Keyingi yillarda boshlang‘ich sinf darslarining mutaxassislar etishmasligi sababli o‘zining sinf o‘qituvchilariga berilishi ham o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini bir muncha pasayishiga sabab bo‘lmoqda.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayoni-o‘quvchilarga musiqa savodxonligini shakllantirishga alohida ahamiyat kasb etadi. chunki, boshlang‘ich sinfda o‘quvchi musiqa savodxonligini asosiy poydevori shakllantiriladi. Shunisi muhimki, “O‘zbekiston Respublikasi umumta‘lim maktablarida musiqa ta‘lim-tarbiyasi konsepsiyasi” qabul qilinib, unda boshlang‘ich ta‘lim tuzilishga alohida e‘tibor beriladi. Ayniqsa, musiqa ta‘limi amaliyotida boshlang‘ich sinflarda musiqani o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan:

- bolalar musiqiy tayyorgarlik darajasini har xilligi;
- notani yozish, uni tushuntirish, malakasining hali to‘la shakllanmaganligi;
- bolalarning ko‘pchiligida musiqani idrok etish, mustaqil kuylay olish malakalarining to‘liq rivojlanmaganligi;
- o‘quvchilar diqqat – e‘tiborning barqaror emasligi alohida hisobga olingan.

Shuning uchun biz, ishimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda musiqa savodxonligi malakalarini shakllantirishda o‘quvchilarning pedagogik, psixologik va fiziologik rivojlanganlik darajasini bilish hamda ta‘lim jarayonida uni hisobga olish alohida ahamiyatga ega ekanligi ta‘kidlab o‘tmoqchimiz

Birinchi sinf musiqa madaniyati darslarining maqsad va vazifalari bolalarning psixologik, fiziologik xususiyatlariga asoslanib, musiqa madaniyati 12 tarbiyasi uchun muhim savodxonlik asoslarini egallashlariga alohida e‘tibor qaratiladi. 1-sinf o‘quvchilarining musiqiy tayyorgarlik darajasi bir xil tekis emas. Ayrim bolalar musiqa tinglash, uni idrok eta olish malakasiga ega bo‘lib, turli xil qo‘shiqlarni ifodali kuylashga harakat qilishadi. Boshqalari esa maxsus musiqa tinglashni hatto tushunishmaydi, to‘g‘ri kuylash haqida ma‘lumotga ega emaslar. Bu esa ularning maktabgacha davrda musiqiy tushuncha ma‘lumotlardan qay darajada bahramand bo‘lganliklari, musiqiy muhitga munosabati bilan belgilanadi. Biroq, bu yoshda bolalarning umumiy xususiyatlarini ham ta‘kidlashimiz lozimdir. Birinchi sinf o‘quvchisi quyidagi tipik xususiyatlarga ega bo‘ladiki, ta‘lim-tarbiya jarayonida, albatta uni hisobga olish lozim:



- *butun organizmning to'liq shakllanganligi bois, darsda bir xillik faoliyat natijasida tezda tashqi charchash holati ro'y berish;*

- *tizimli, maqsadga muvofiq aqliy faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarining shakllanmaganligi;*
- *bolalarning diqqat e'tibori ham barqaror darajada emasligi;*
- *bolalarning o'yin faoliyatiga moyilligi, o'yin orqali hatto murakkab materialini o'zlashtirishga ham erishishi mumkinligi*

Garchand **1-2 sinf** bolalari ko'pgina umumiy sifatlar orqali o'quv materiallarini yaxshi o'zlashtirish, shirin xayol, muayyan xotiraga ega bo'lsalar-da, ular orasida ma'lum farqlar bordir. eng avvalo **2-sinf** o'quvchisi endi "tajribali" o'quvchi, u maktab tartibiga o'rgangan, dars talablarini tushungan bo'lib, ancha turg'un holatda bo'ladi. 1- sinf o'quvchisiga nisbatan abstrakt tafakkur etish, umumlashtirish, o'qiy olish malakalari, uning dunyoqarashi, jumladan, musiqiy tafakkurning kengayishiga yordam beradi. Bularning barchasi o'quvchining ijodiy badiiy jihatdan kamol topishiga yordamlashadi.

**2-sinf** o'quvchisining musiqiy rivojlanishi darajasi, albatta sinfda o'tkaziladigan mashg'ulotlarning sifat va samaradorligiga bog'liq. Shuningdek, tevarak-atrof, oila ta'siri natijalarini ham e'tirof etish kerak. Biroq, o'qituvchi o'quvchilar tayyorgarligiga doimo past baho bermasligi lozim. Chunki, normal rivojlanayotgan bolada musiqiy qobiliyat u yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin.

Musiqi ta'limi samaradorligini tashkil etish o'quvchilar musiqiy qobiliyatlarini aniqlashni taqozo etadi. Mashg'ulotda o'quvchilar musiqa tinglash, savodxonlik, qo'shiq o'rganish, bolalar cholg'ularida chalish, ritmik harakatlarni bajarish, musiqa ijodkorligi faoliyatlarida namoyon bo'ladigan qobiliyatlarni aniqlash mumkin. O'qituvchi o'quvchilarning musiqiy faoliyatlarda faolligini oshirish, ularni mashg'ulotlarda ommaviy jalb etish orqali musiqiy qobiliyatlarni yanada rivojlantirishga erishmog'i lozim.

**3-sinf** o'quvchilarida qiziqish ancha rivoj topa boshlaydi. Ular har bir hodisani yuz berishini o'z ko'zlari bilan ko'rishni xohlaydilar, ularning o'zlari qiziqib ishtirok etishga urinadilar.

**4-sinfda** o'quvchi ancha mustaqil bo'lishi kuzatilib, u jismoniy jihatdan kuchli, aqlli. 1-3 sinf o'quvchisiga nisbatan aqliy tafakkur etish tajribasiga ega, diqqat, e'tibori, xotirasi ancha rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Biroq, shuni ham ta'kidlash lozimki, sinf o'quvchisining qiziqishi hali ham to'liq shakllanmagan bo'ladi.

Agar 1-2-3 sinflarda bolalar o'quv faoliyatining istalgan turi (qo'shiq kuylash, raqsga tushishi, musiqa asboblarida chalish va boshqalarga) tayyor bo'lib, qiziquvchanligini namoyon qiladigan bo'lsa, 4-sinfga kelib, qiziqish borasida turlanish holati sodir bo'ladi. Zero, shaxsning ko'pgina qobiliyatlari, jumladan, musiqiy-ijodiy, qobiliyatlari ham turli bosqichlarda, rivoj topishi mumkin va bu hayotda kuzatilgan tabiiy holdir. 4-sinf o'quvchisi mustaqil rivojlanishi, ijtimoiy-madaniy hayotga qiziqishi,

unda bo'ladigan hodisa-voqealarga faol ishtirok etishga moyilligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Musiqa savodxonligini oshirishda o'quvchilar o'zlashtiradigan o'quv materiallarining ahamiyati katta.

### XULOSA

Xulosa qilib aytsak, maktab o'quvchilarida musiqa savodxonligini amalga oshirishning ahamiyati katta. Bola birinchi sinfda harflarni o'rganib, ular orqali oddiy so'zlardan boshlab kitobga qarab o'qishni o'rganishi qanchalik zarur bo'lsa, musiqadan bahramand bo'lish uchun notalarni o'rganishi ham shunchalik zarur. Ammo, ayrim maktablarda o'quvchilar 4-sinfni tugatib ham notalarni ularning shaklini bilmaydilar. Buning sababi ko'p. Asosiy sabablardan biri–boshlang'ich sinflar musiqa madaniyati darslarining mutaxassis o'qituvchiga bermasdan sinf o'qituvchilarining o'zlariga berishdadir. Maxsus musiqiy ma'lumotga ega bo'lmagan boshlang'ich sinf o'qituvchilari asosan qo'shiqlarning matnini yozdirib, yodlatib, to'g'ri kelgan ohang bilan aytirib yuradilar. Darsliklarda berilgan mavzularni yozdirib, takrorlatib, so'rab darsni o'tkazadilar. Ayrimlari magnitofondan foydalanib to'g'ri, noto'g'ri musiqa tinglashni ham tashkil etishlari mumkin. Ammo o'quvchilarga qo'shiqni aniq yozilgan ohangi bilan o'rgatish, o'z ijrolarida kuy va qo'shiq tinglatishni bir foiz o'qituvchilar amalga oshirishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rakhmonova, D. N. (2019). THE IMPORTANCE OF TEACHING MUSIC AT SCHOOL. In *СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ* (pp. 271-273).
2. Mamanazar, D., Uzbekistan, T., & Dilshodbek, K. THE BASIC DIRECTIONS OF THE ACCOMPLISHMENT OF PREPARATORY CONCEPTION OF FUTURE TEACHERS IN MODERNIZATION OF EDUCATION.
3. Rakhmonova, D. N. (2022). MUSIC LITERACY FOR PRIMARY SCHOOL PUPILS. *Global Book Publishing Services*, 1-182
4. Rakhmonova, D. N. (2019). DEVELOPMENT OF MUSIC CULTURE FOR ELEMENTARY SCHOOL PUPILS WITH USING INTERACTIVE SOFTWARE. *Theoretical & Applied Science*, (12), 101-106.
5. Sharipova G.M “Musiqa o'qitish metodikasi” Toshkent. Nizomiy TDPU. 2000 yil. 14. S.Sh. Murodov “Xorshunoslik” uslubiy qo'llanmaning ixchamlashtirilgan varianti. Buxoro 2005 y
6. Shaturaev, J. (2014). Comparative study on similarities and differences of teaching and learning process in primary schools in Indonesia and Uzbekistan. *Universitas Pendidikan Indonesia*.
7. Mukhamedova, F. (2019). Formation, development of piano performance and education of Uzbekistan. *Eurasian music science journal*, (1), 84-108.
8. Ibodovich, R. T. (2021). THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF CHILDREN'S FOLK SONGS IN MUSIC CULTURE LESSONS. *European Scholar Journal*, 2(6), 139-141.



9. Khudoyberdiyevich, D. A., & Rakhmonqulovich, K. N. (2020). An incomparable book of a great scholar. *Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research*, (6 (8)), 63-71.
10. Karimov, N. (2020). A True Successor of Great Central Asian Scholars. *Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research*, (9), 62-69.
11. Ziyamukhamedov, J. (2022). PU Sungling's Creative Legacy as a Classic Example of Medieval Chinese Literature. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(1).
12. Odilov, B., & Karimov, N. Archaeological Research is an Important Source in the Study of Traditional Economic Activities of the Uzbek People (On the Example of Some Researchers of the Twentieth Century).